

OILADA BOLALARNI HUQUQIY SAVODXONLIGINI NAZARIY JIHATDAN SHAKLLANTIRISH

Do'smatova Umida Mamarasul qizi
JDPU maktabgacha ta'lim yo'nalishi
talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oilada bolalarni huquqiy savodxonligini nazariy jihatdan shakllantirish haqida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *Oila, huquqiy savodxonlik, huquqiy ong, ta'lim, tarbiya, huquqiy madaniyat, bola, ta'lim jarayoni, jismoniy, ma'naviy, konstitutsiyaviy huquqlari.*

Аннотация: *В данной статье написано о теоретическом формировании правовой грамотности детей в семье.*

Ключевые слова: *семья, правовая грамотность, правосознание, воспитание, воспитание, правовая культура, ребенок, воспитательный процесс, физические, духовные, конституционные права.*

Annotation: *This article is written about the theoretical formation of the legal literacy of children in the family.*

Key words: *family, legal literacy, legal awareness, upbringing, upbringing, legal culture, child, educational process, physical, spiritual, constitutional rights.*

Milliy mustaqillikka erishilgach, O'zbekiston Respublikasida pedagogika fani taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. Xususan, pedagogik tadqiqotlarning ko'lami kengaytirildi. Milliy pedagogik madaniyat, meros chuqur o'rganilib, shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalash borasidagi jaxon tajribalari, yutuqlaridan milliy xususiyatlarga tayangan holda foydalanish borasidagi izlanishlar yuzaga keldi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya jamiyatning ustuvor sohasi ekanligi jamiyatdagi so'ngi yillarda bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar bunga misol bo'la oladi. Shu o'rinda mustaqillik yillarida respublikamiz prezidenti va mamlakatimizda ta'lim tarbiya olayotgan yosh avlodlarimizni har tomonlama kamol topishi, yoshlarning qalbi va ongini milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi ruhida tarbiyalash, ularni zamonaviy bilim va hunarlarni egallagan, har tomonlama aqlli, ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi.

Oilada bolalarni huquqiy savodxonligini oshirish huquqiy ongi va bilimi rivojlanganlik darajasi va ularning ijtimoiy-huquqiy faolligiga qarab aniqlashi mumkin. Bolalarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohalarda faol



ishtirok etishlari huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi o'sib borayotganligidan dalolat beradi.

Biz tanlab olgan yangi jamiyat qurish yo'lida yoshlarning huquqiy savodxonligini yuksak darajada shakllantirish hamda ularning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini kafolatli ta'minlash muammolari alohida ahamiyat kasb etmoqda.⁷

Huquqiy madaniyatning yuqori darajada shakllantirish huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Huquqiy savodxonlik keng tushunchadir. Huquqiy ong huquqiy savodxonlikning g'oyat muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u eng avvalo bolalarning qonunga munosabatlarini ifodalovchi qarashlari va e'tiqodlaridan, ularning huquq haqidagi tasavvurlaridan, intilishlari va tuyg'ularidan iboratdir.

Huquqiy ong darajasi bolalarniyg yangi qonunlar qabul qilish, davlat organlarining qonunni qo'llash, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish faoliyati bilan bog'liq fikrlari va kayfiyatlarini, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik hamda iqtisodiy o'zgarishlarga munosabatini belgilaydi.

“Huquqiy madaniyat darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan habardor bo'lishdangina iborat emas, u - qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir. U odil sudni hurmat qilish, o'z haq-huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish ehtiyoji, huquqiy madaniyat degani - turli mojarolarni hal qilishda qonunga xilof kuchlardan foydalanishni rad etish demakdir.”⁸

Huquqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, o'zviylik, aloqadorlik hamda dialektik harakterga ega bo'lib, shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish garovi hisoblanadi. Zero, huquqiy ta'lim o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'grisida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni bo'lib, u izchil, uzliksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish huquqiy ta'lim va tarbiya jarayoning muhim bosqichidir.

Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Baxouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zaxiriddin

⁷ Xolokov D. Xuquqiy madaniyat oila mustaeusamshgining asosi. -T.: Fan, 2009Y.

⁸ I.A.Karimov. Vatan sajdagox, kabi muqddasdir. 3-jild, -T.: O'zbekiston, 1996,22-bet



Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimiz ilm-fan rivojida o'zlarining ulkan xissalarini qo'shganlar.

Sharqda keng tarqalgan pandnoma tarzida yozilgan mashxur asarlardan biri Unsurul ma-oliy Kaykovusning "Qobusnoma"sidir. Bu asar sharq pedagogika fani taraqqiyotida muhim o'rinni egallaydi va qanchadan-qancha avlodlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda o'z hissasini qo'shib kelmoqda. "Qobusnoma" falsafiy didaktik asar bo'lib, shaxs shakllanishining barcha tomonlarini o'z ichiga oladi. Uning "Farzand parvarish qilmoq zikrida" degan bobi bevosita oiladagi bola tarbiyasiga bag'ishlanadi. "Qobusnoma"da ota-onaning qator vazifalari sanab o'tiladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Bolaga yaxshi ism qo'yish;
2. Oqil va mehribon enagaga topshirish;
3. To'y-tomoshga qilib, sunnat to'y o'tkazish;
4. O'qish-yozishni o'rgatib, kasb-hunar va ilmi qilish;
5. Harbiylar ahlidan bo'lsa, sipoxiylikni o'rgatish⁹.

Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni birga olib borish lozimligini ta'kidlaydi. "Yosh bola ilm bilan odobni tayoq bilan o'rganur, o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va senning ul sababdan qaxring kelsa, o'z qo'ling bilan urmagil, muallimlarning tayog'i bilan qo'rqitgil. Bolalarga muallimlar adab bersinlar, toki sendan o'g'lingni ko'nglida gina qolmasin".¹⁰

Yuqoridagi keltirilgan fikrlardan ko'rinib turganidek, huquqiy madaniyat, bu eng avvalo, inson manfaatlari uchun xizmat qiladigan qonunlarni til uchidagina emas, dildan, qalbdan, vujudan hurmat qilish, e'zozlash, muqaddas deb bilishdir. Huquqiy madaniyatning eng muhim jihati qonunga so'zsiz itoatkorlik, qonunlarga bo'ysunish, ularga to'la rioya etish, ular asosida faoliyat yurgizishdir. Boshqacha aytganda, huquqiy madaniyat faqat qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan habardor bo'lishdangina iborat emas, balki qonunlarga qat'iyon amal qilishdir. Qonunlarga rioya etmaydigan odamni huquqiy madaniyatli deb bo'lmaydi. Odil sudni hurmat qilish, o'z haq-huquqlarini himoya qilishda unga murojaat etish, uni o'zi uchun himoyachi deb bilish va e'tiqod qilish ham huquqiy madaniyatdir.

⁹ Kaykovus. Qobusnoma/ Kaykovus. Nashrga tayyorlovchilar: S.Dolimov, U.Dolimov. - "O'qituvchi" NMIU, 2006 - 104-bet.

¹⁰ Kaykovus. Qobusnoma/ Kaykovus. Nashrga tayyorlovchilar: S.Dolimov, U.Dolimov. - "O'qituvchi" NMIU, 2006 - 104-bet





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xolokov D. Huquqiy madaniyat oila mustahkamligining asosi. -T.: Fan, 2009Y.
2. I.A.Karimov. Vatan sajdagox, kabi muqaddasdir. 3-jild, -T.: O'zbekiston, 1996, 22-bet
3. Pedagogika. Toxtaxadjaeva M X. taxrir Ostida. -T.: Fan, 2006
4. Kaykovus. Qobusnoma/ Kaykovus. Nashrga tayyorlovchilar: S.Dolimov, U.Dolimov. - "O'qituvchi" NMIU, 2006 - 104-bet.

